# Yangi yil bayrami munosabati bilan xayriya tashkil etildi.

// 27.12.2023
https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/yangi-yil-bayrami-munosabati-bilan-xayriya-tashkil-etildi




Bugun “O‘zkimyosanoat” AJ hamda “O‘zkimyoimpeks” MCHJ homiyligida O‘zbekiston ko‘zi ojizlar jamiyati Shayxontohur bo‘linmasi a’zolari uchun Yangi yil bayrami munosabati bilan tadbir tashkil etildi.




Mazkur bo‘linmada 105 nafar I-II guruh ko‘zi ojiz insonlar hisobga olingan. Ularning aksariyatini yoshi ulug‘, ishga layoqatsiz, boquvchisini yo‘qotgan shaxslar tashkil etadi va ular ijtimoiy-moddiy yordamga muhtoj.




Bayram kunlari ularning holidan xabar olish, har tomonlama  qo‘llab-quvvatlash maqsadida O‘zbekiston ko‘zi ojizlar jamiyati Shayxontohur bo‘linmasining har bir a'zosiga “Korzinka” supermarketiga xaridlar uchun 1 mln so‘mlik maxsusaucher taqdim etildi. Shuningdek, homiylik yordamlari ko‘rsatildi.


Uzkimyosanoat
"O'zkimyosanoat" AJ
MATBUOT XIZMATI
uzkimyosanoat
uzkimyosanoat.uz
(+99878) 140-74-26


Uzkimyosanoat
uzkimyosanoat
uzkimyosanoat.uz
(+99878) 140-74-26
"O'zkimyosanoat" AJ
MATBUOT XIZMATI